

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**O'ZBEK, RUS TILLARI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**O'zbek tili fani o'qituvchisi  
SHAYMANOVA YULDUZ TOSHNIYAZOVNANING  
“Hujjat turlari va ularning xususiyatlari” mavzusidagi**

# **OCHIQ DARS ISHLANMASI**

**Fakultet: Mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyalari va standartlashrish.**

**Yo'naliш: Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi.**

**Fan: O'zbek tilining sohada qo'llanishi.**

**Guruh: 103**



**Samarqand – 2024**

**Tuzuvchi: Shaymanova Y.T.** - Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetи O‘zbek, rus tillари va adabiyoti kafedrasи o`qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Xalova M.** – Samarqand davlat chet tillar instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Mamirova D.** – Samarqand davlat chet tillar instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori



## ***Mavzu: Hujjat turlari va uning xususiyatlari.***

### **O‘quv mashg‘ulotida ta’lim texnologiyasi modeli**

Vaqt: 80 daq.	Talabalar soni: 14 nafar
<b>O‘quv mashg‘ulotining turi va shakli</b>	Amaliy-yangi bilimlarni egallash va mustahkamlash bo‘yicha o‘quv mashg‘uloti
<b>O‘quv mashg‘ulotining rejasi</b>	1. Hujjatchilik tarixi haqida. 2. Ish yuritish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar. 3. Ish yuritish hujjatlarining qo‘llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko‘ra turlari
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: talablarda <u>adabiy nutq uslublari, ilmiy uslub</u> va uning <u>xususiyatlari</u> haqidagi bilimlarni shakllantirish, olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O‘quv faoliyati natijalari</b>
– so‘zlashuv, ilmiy, ommabop, badiiy, rasmiy uslublar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar berish; – uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar haqida tushuncha berish.	– hujjat, tasniflash, hujjat rikvizitlari, hujjatchilik tarixi, ish yuritish hujjatlariga qo‘yiladigan talablar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi; – ish yuritish hujjatlariqo‘llanilish doirasi va maqsad va vazifalariga ko‘ra turlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi
<b>O‘qitish usullari</b>	ko‘rsatma berish, taqdimot, manbalar bilan ishslash, didaktik o‘yinlar, mashq, “Sirli so‘z”, “Noto‘g‘ri jadval”, “Uslubni toping”, “Konseptual jadval”, “Mozaika”, “Mosini toping” “O‘zing tanla” usullari.
<b>O‘quv faoliyatini tashkil etish shakli</b>	Ommaviy, yakka tartibli

<b>O‘qitish vositalari</b>	O‘quv-uslubiy majmua, darslik, tarqatma materiallar, yozuv taxtasi, kompyuter, proyektor.
<b>O‘qitish shart sharoitlari</b>	Guruh bilan ishslashga qulay bo‘lgan jihozlangan xona
<b>Qaytar aloqaning usul va vositalari</b>	Taqdimot, og‘zaki so‘rov, tezkor savol-javob, misol va mashqlar, test.

### **O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

<b>Bosqichlar vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchi</b>
<b>1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish ( 15 daqiqa)</b>	<p><b>Tashkiliy qism.</b> Salomlashish, davomatni aniqlash.</p> <p>1.1. Tayanch bilimlarni faollashtiruvchi aqliy hujum va “Sirli so‘z” usuli bilan dars boshlaydi (“Daftар hoshiyasidagi bitiklar” asaridan matn).</p> <p>1.2. Yangi mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni va adabiyotlar ro‘yxatini aytadi. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quv ishlarni baholash mezonlarini tanishtiradi.</p> <p><b>Uyga vazifani so‘rash:</b></p> <p>1.3. Talabalar bilimini o‘tilgan mavzu bo‘yicha “Konseptual jadval” (“Biotexnologiya fanining rivojlanish istiqbollari va muammolari” matni), “To‘g‘ri tanlov” usullari bilan tekshiradi.</p>	<p>Javob beradilar</p> <p>Tinglaydilar va javob beradilar</p> <p>Tinglaydilar va yozib oladilar</p> <p>Aniqlashtiradilar va savol beradilar</p> <p>Baholash mezonlari bilan tanishtiradilar</p> <p>Javob beradilar, bajaradilar</p>
<b>2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	<p><b>Yangi mavzuni o‘tish.</b></p> <p>2.1. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimini faollashtirish uchun suhbat o‘tkazadi.</p> <p>2.2. Yangi mavzu mazmunini ochib beradi, mohiyatni ochib beradigan slaydlarni ko‘rsatadi va tushuntiradi.</p> <p>2.3. Mavzuning har bir rejasi bo‘yicha asosiy tushuncha va jihatlariga e’tibor qaratadi.</p>	<p>Savollarga javob beradilar,</p> <p>sharhlaydilar</p> <p>Yozadilar</p> <p>Mavzuni tinglaydilar</p>

	<b>Mavzuni mustahkamlash.</b> 2.4.O‘qituvchi talabalarga o‘quv topshiriqlarini beradi, yo‘riqnomalari bilan tanishtiradi. O‘quv topshiriqlarini tarqatadi, talabalar ishini kuzatadi, javoblarini tinglaydi.	Mavzuni tinglaydilar  Mustaqil ishlaydilar Topshiriqni bajaradilar, test savollarini bajaradilar
<b>3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	<b>Dars yakuni</b> 3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiylar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi. 3.2. Uyga vazifa berish. “O‘zing tanla” usuli orqali topshiriqlar beradi.	Tushunib oladilar, baholar bilan tanishadilar, topshiriqlarni yozib oladilar

## Darsning maqsadi:

### Ta’limiy:

- talabalarning matn va uning ko‘rinishlari haqidagi bilimlarini umumlashtirish va boyitish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ma’lumot berish;
- matn va uning ko‘rinishlari haqida ko‘nikmalarini shakllantirish;  
Rivojlantiruvchi:
- talabalarning so‘z boyligini oshirish; og‘zaki va yozma nutqini o’stirish, sohaga oid bilimlarini mustahkamlash va boyitish.

### Tarbiyaviy:

- talabalarни она tiliga, ajdodlar merosiga hurmat, vatanparvarlik, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash, yuksak axloqiy va ma’naviy sifatlarining shakllanishiga e’tibor qaratish, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.

## Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2020.
- 2.Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent, 2019.
- 3.Hamidova Sh., Eshniyazova M. “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” (veterinariya yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy qo‘llanma). – Samarqand, 2022.

## Fanlararo bog'lanish

- Huquqshunoslik
- Tilshunoslik
- Psixologiya
- Falsafa
- Tarix
- Matematika
- Informatika
- Fizika
- Biologiya
- Iqtisodiyot



## Dars shiori

**Ilm qog'ozga chizish  
va yozish bilangina  
emas, balki uqmoq  
va o'qimoq bilandir.**  
**(Mahmud Zamaxshariy)**

### UYGA VAZIFANI TEKSHIRISH UCHUN TOPSHIRIQLAR



1-topshiriq. “  Uy ishi

Berilgan matn bilan tanishing. Matnni turli jihatlariga ko‘ra tavsiflang.

#### **Qoramollarning sistiserkozi (finnoz)**

Qoramollar sistiserkozini *Taeniidae* oilasiga kiruvchi, odamning ingichka ichagida parazitlik qilib yashaydigan sestoda – *Taeniarhynchus saginatus*ning lichinkasi *Cysticercus bovis* chaqiradi.

Sistiserkoz bilan, asosan, hayvonlarning muskul to‘qimalari, ko‘pincha til, jag‘, bo‘yin, qovurg‘alararo va yurak muskullari zararlanadi.

Sistiserkoz xo‘jalikka ko‘pgina iqtisodiy zarar keltiradi.

Sistiserkoz bilan yengil zararlangan mol go‘shtining sifati pasayadi, chunki u faqatgina zararsizlantirilganidan keyingina shartli sog‘ go‘sht sifatida iste’mol etishga ruxsat etiladi. Agar mol kuchli zararlansa, go‘shti yo‘qotiladi.


**Qo‘zg‘atuvchisi.** Qurollanmagan zanjirlilar qoramol solityorining lichinkalik davri – sistiserk (*Cysticercus bovis*) yupqa pardali, kattaligi no‘xatdek keladigan pufakchadan iborat, uzunligi 5-15 mm, eni 3-8 mm, uning ichida rangsiz suyuqlik va parazitining boshchasi (skoleksi) bor. Sistiserk tashqi tomondan biriktiruvchi to‘qimadan tuzilgan parda bilan o‘ralgan. Undan kelgusida lentasimon sestoda – *Theniarhynchus saginatus* rivojlanadi. Jinsiy voyaga yetgan *T.saginatus*ning uzunligi 10 metr va undan ko‘p, eni 12-14 mm. Skoleksi qurollanmagan, yirik, eni 1,5-2,0 mm.

**Qo‘zg‘atuvchisining rivojlanishi.** Qoramol solityorining rivojlanishi xo‘jayin almashishi bilan kechadi. Qo‘zg‘atuvchining voyaga yetgan shakli faqat odamning ingichka ichagida yashaydi. Sestodaning oxirgi bo‘g‘inlari bittadan uzilib, bemorning anal teshigidan harakatlanib yoki axlati bilan birga tashqariga chiqadi. Bitta bo‘g‘inda 145-175 mingtagacha tuxumlar bo‘ladi. Tuxum ichida embrional taraqqiyot jarayoni natijasida olti ilmoqli embrion – *onkosfera* rivojlanadi. Onkosfera parazitning oraliq xo‘jayini uchun invazion qobiliyatga ega.



## Mustaqil ishlash uchun topshiriq

Quyidagi kabi “Pog‘ona” usulidan foydalanib, jadvalni shakllantiring va mavzuga oid ma’ruza ma’lumotlari asosida to‘ldiring.



## Yangi mavzuni tushuntirish uchun slaydli taqdimot

# 14-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

► Reja:

- 1. Hujjatchilik tarixi haqida.
- 2. Ish yiritish hujjatlariga qo'yiladigan tatalablar.
- 3. Ish yuritish hujjatlarining qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra turlari.

Hujjat turlari

**tuzilish o'rniغا ко'ра:**

ichki hujjatlar

tashqi hujjatlar

tashkilotning o'zida  
foydalaniladigan  
hujjatlar

tashkilotlararo  
qo'llanuvchi hujjatlar

Hujjat turlari

Mazmuniga ko'ra

sodda

murakkab

Tegishlilik jihatiga ko'ra

rasmiy hujjat

shaxsiy hujjat

Tayyorlanish xususiyat va darajasiga ko'ra

qoralama

asl nusxa

ikkinchini nusxa  
(dublikat)

ko'chirma  
hujjatlar

► Ish yuritishning asosini bevosita hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyati shakllanishi bilanoq bu jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlaridagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan.

## HUJJATCHILIK TARIXI HAQIDA

- Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094-yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan tartibot vositalarining nechog'li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlaming almashinishi, aniqrog'i, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillashishi barobarida hujjatlar ham takomil topib brogan.
- Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznomalar, vasiqa, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. XIX asrda Qo'qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri «patta»lardir.

## Ish yuritish hujjatlariga qo'yiladigan talablar

- Oktabr to'ntarishidan keyin sho'rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o'zining istibdod yo'rig'iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo'riq sirtmog'idan chetda qolmadi. Mohiyatan o'ta g'irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqeyi pasayib bordi. Turkiston o'lkasining 1918-yildagi Asosiy qonunida o'zbek va rus tillari davlat tili deb e'lon qilingan. Holbuki o'sha davrdagi o'lka nufusining 37 foizini o'zbeklar, 35 foizini qirg'izlar (qozoqlar bilan birga), 17 foizini tojiklar va atigi 7 foizinigina ruslar tashkil etar edi. Bu hol hisobga olinsa, davlat tilini belgilashdagi mantiqnning sog'lom emasligini aniq ko'rish mumkin. Tabiiyki, rasman o'zbek va rus tillari davlat tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda idoraviy ish yuritish rus tilida olib borilavergan

- ▶ O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi.
- ▶ Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayni paytda, hujjatlar matnini tuzish boshqaruv apparati faoliyatidagi eng sermehnat va sermashaqqat jarayondir. Bu jarayonning oqilonaligi va samaradorligini oshirmsandan turib, umumiyl boshqaruv madaniyatini yuksaltirib bo'lmaydi. Jamiyat hayoti barcha jabhalarining jadal rivoji esa boshqaruv madaniyatining darajasiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar har qanday zaruriy axborotni rasmiy - ish tilining tegishli shakllarida bemalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish malakalarini puxta egallagan bo'lishi zarur

## Ish yuritish hujjatlarining qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra turlari

- Ish hujjatlarida har doim rasmiylik ma'nosi ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo'lgan so'zlar va qoliplashgan barqaror iboralar qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllar (qurilmalar) hujjatlar tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlarni hisoblanadi. Masalan, "muhokama qilindi", "zimmasiga yuklansin", "qaroriga muvofiq ravishda", "ma'lumot uchun qabul qilinsin", "ruxsat berishingizni so'rayman", "ishonch bildiraman" kabi. Bunday qoliplashgan birikmalar matnga rasmiylik belgisini kiitadi. Qoliplashgan birikmalarni o'rganish va yodda saqlash hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi

### Hujjat -

- arabcha - “guvohnoma, isbot, dalil”
- axborot qayd etilgan hamda uni vaqt va makonda uzatish imkonini beruvchi moddiy obyekt.

**Diqqat qiling!**

**Har bir rahbar, boshqaruva muassasalarining xodimlari, umuman faoliyati ish qog'ozlarini tuzish bilan bog'liq har bir kishi o'zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalalarini mukammal egallagan bo'lishi kerak.**


## Hujjatning birlamchi va asosiy unsuri

► **Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur – bu **tildir.****

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
QONUNI  
Davlat tili haqida



► **8-15-, 24-moddalar**  
► **Ish hujjatlarining davlat tilida yuritilishi haqida**



## **Tashkiliy hujjatlar**

(alohida shaxs, jamoa tashkilotlari o'rtasidagi aloqaning huquqiy jihatlarini qamrab oladi)

guvohnoma

yo'riqnoma

nizom

qoida

shartnoma

## **Farmoyish hujjatlari**

tashkilot yoki muassasa rahbarining  
ish faoliyati doirasida amal qiladi

buyruq

ko'rsatma

farmoyish

## **Ma'lumot-axborot hujjatlari**

ariza

bayonnomma

bildirishnoma

vasiyatnoma

dalolatnoma

ishonchnoma

ma'lumotnoma

tavsifnoma

tavsiyanoma

taklifnoma


tarjimayi hol

tushuntirish xati

e'lon

hisobot

## Xizmat yozishmaları



**taklifnama  
telegramma  
telefonogramma  
modemogramma  
turli mazmundagi  
xatlar**

### **Hujjat turlari**

**tuzilish o‘rniga ko‘ra:**

**ichki  
hujjatlar**

**tashqi  
hujjatlar**

tashkilotning o‘zida  
foydalaniладиган  
hujjatlar

tashkilotlararo  
qo‘llanuvchi  
hujjatlar

### **Hujjat turlari**

**Mazmuniga ko‘ra**

sodda

murakkab



### **Tegishlilik jihatiga ko‘ra**

**rasmiy hujjat**

**shaxsiy hujjat**



### **Tayyorlanish xususiyat va darajasiga ko‘ra**

*qoralama*

*asl nusxa*

*ikkinci  
nusxa  
(dublikat)*

*ko‘chirma  
hujjatlar*

## **Hujjatlar mazmun bayonining shakliga ko‘ra uch turli bo‘ladi:**

### **Xususiy hujjatlar**

- fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ular asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo‘ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

### **Namunaviy hujjatlar**

- har bir tashkilot va uning bo‘linmalari uchun zaruriy bo‘lgan bildirgi, xizmat ma’lumotnomasi, tavsifnama, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.

### **Qolipli hujjatlar**

- ko‘plab turlari mavjud, ular soha faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

**Diqqat!**

**✓ Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi ish yuritishning asosi hisoblanadi.**

**Hujjatlardan namunalar bilan tanishing!**

# ARIZA

- Ariza bir kishi tomonidan tashkilot, korxona yoki muassasa rahbari nomiga **ittimos, taklif, shikoyat** mazmunida yoziladi.
- Arizaning tarkibiy qismida quyidagilar bo'ladi:
  - ariza yo'llangan tashkilot, korxona, muassasa va uning rahbarining nomi;
  - arizachining turar joyi yoki ish joyi, vazifasi, ismi va otasining ismi;
  - shundan so'ng **Ariza** degan yozuv;
  - arizaning mazmuni;
  - agar lozim bolsa, arizaga ilova qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar ro'yxati;
  - ariza yozilgan vaqt, arizachining imzosi, ismi-familiyasi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasи,  
chorvachilik va bioteknologiyalar universitetи  
rektori X.B. Yunusovga Samarqand shahri Beruniy  
ko'chasi 14-uyda yashovchi Qarshiboyeva Zuhra  
Abduvahobovnadan

## ARIZA

Meni O'zbek, rus tillari va adabiyoti kafedrasiga 1,0 (bir) shtat birligida o'qituvchi  
lavozimiga ishga qabul qilishingizni so'rayman.

Arizaga oliy ma'lumot to'g'risidagi guvohnomani ilova qilaman.

2022-yil 2-sentabr (imzo) Z.Qarshiboyeva

## TARJIMAYI HOL

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyatini aks ettirib yozilgan bayonnomalar.

### Zaruriy qismlari:

1. Tarjimayi hol deb yoziladi.
2. Muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi to'liq ko'rsatiladi.
3. Tug'ilgan yili, kuni, oy va joyi ham aniq yoziladi.
4. Ota-onalar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.
5. Shundan so'ng qayerlarda, nima ishlar qilinganligi to'g'risida batafsil, yirma-yil yoziladi.
6. Oilaviy ahvoli va turar joyi haqida ma'lumot beriladi.
7. Oxirida yozilgan sana ko'rsatilib, imzo chekiladi.

### TARJIMAYI HOL

Men, O'rroqova Nilufar Mustafayevna, 1979-yilda O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Nurota shahrida ziyoli oilasida tug'ilganman.

Otam - O'rroqov Mustafo (1946) va onam Qilicheva Saodat (1950) Xalq ta'limi sohasida faoliyat yuritishadi.

1985-1996-yillarda Nurota shahridagi №18-maktabda o'qidim. Shundan so'ng, 2000-yilda Samarqand davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatganman.

Mehnat faoliyatimni Navoiy Tasviriy va amaliy san'at litsey-internatda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi sifatida boshlaganman. 2004-2008-yillarda Samarqand shahridagi №13-o'rta maktabda o'qituvchi, 2008-yildan boshlab SamISI qoshidagi 1-son akademik litseyda o'qituvchi vazifasida ishlab kelyapman.

Oilaliman, 2 nafar farzandim bor.

Hozirda Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 36-uyda yashayman.

N.O'rroqova

2010- yil 20- yanvar

## HISOBOT

- ▶ Hisobotlar rejalashtirilgan ishlarning qanday amalga oshirilganligi to'g'risidagi taqdimot tarzida tuziladi.
- ▶ Ular tashkilot va muassasalarda **oylik, kvartal va yillik hisobot** shaklida bo'lishi mumkin.
- ▶ Hajmi esa amalga oshirilgan ishlarning ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

## HISOBOT

- ▶ Hisobot tarkibida quyidagilar yoziladi:
  - ✓ hisobot berayotgan tashkilot yoki uning bo‘limi nomi
  - ✓ *Hisobot* degan so‘z
  - ✓ hisobot matni
  - ✓ hisobotni tayyorlovchining imzosi va sana.
- ▶ Hisobot yuqori tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

## HISOBOT

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 101-guruh talabasi Sheravatov Shaxbozning universitet o‘quv xo‘jalik hududida o’tkazgan bir oylik amaliyoti davomida olib borgan ishlari haqida

### HISOBOT

Men joriy o‘quv yilining 23-mayidan 4-iyun sanasigacha universitet o‘quv xo‘jalik hududida amaliyot o’tadim. Shu hududda men dorivor o’simliklarning yangi navlarini yetishtirishga doir tajribalarni kuzatib bordim, ularni o’stirish, oziqlantirish, parvarishlash jarayonlari bilan tanishdim. To’plangan ma’lumotlarni amaliyot daftarimga qayd etib bordim.

Amaliyotchi:  
2022-yil 6-iyun

(imzo) Sh.Sheravatov

## Tilxat

- ▶ Bir kishining boshqa bir kishidan yoki ishxonadan pul-buyum va biron rasmiy qog'ozni olganligini tasdiqlaydigan hujjat.
- ▶ Uning yozilishi quyidagicha: *Tilxat* degan so'z, tilxatni beruvchining lavozimi, ismi-familiyasi, pul-buyum yoki boshqa biron narsaning aniq nomi va qanchaligi, agar u texnik vosita bo'lsa, uning holati kabilar ko'rsatilib, olganligi e'tirof etilgan matn, so'ngida esa sana va imzo qo'yiladi.
- ▶ **Tilxatga tuzatishlar kiritilmaydi.** Agar guvohlar bo'lsa, ular ham ko'rsatiladi. Tilxat davlat notariusi, fuqarolar yig'inlari tomonidan tasdiqlanishi ham mumkin.

### NAMUNA:

#### T I L X A T

Men, Toshkent markaziy univermagi xo'jalik mollari bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_, fuqaro \_\_\_\_\_ dan bahosi 1 220 000 (million ikki yuz yigirma ming) so'm bo'lgan «Biryusa-6» markalisovutkichni boshqa markalisovutkichga almashtirib berish uchun qabul qilib oldim.

(sana)

(imzo)

F. I.O.

### TUSHUNTIRISH XATI

- ▶ Tushuntirish xati tataba yoki xodim, ischi yoki xizmatchi tomonidan ta'tim-tarbiya yoki ishlab chiqarish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tartib-qoidaga noya qilinmaganlik sabablari ko'rsatilib yozilgan xatdir.
- ▶ Rahbar o'z nomiga yozilgan tushuntirish xati asosida xodimga nisbatan qanday chora ko'rish-ko'rmastlik haqida ma'lum xulosaga keladi.
- ▶ Uning zaruriy belgilari quyidagicha: tushuntirish xati kimga va kimdan yo'llanmoqda, tushuntirish xati yozuvni, asosiy matn, imzo, sana.

### NAMUNA:

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'zbek va qozoq filologiyasi fakulteti dekani \_\_\_\_\_ ga 3-kurs talabasi \_\_\_\_\_ ning

#### TUSHUNTIRISH XATI

Men 2000-yilning 21-sentabrigacha bo'lgan davrda onamning qattiq betobligi tufayli 46 soat mashg'ulotga qatnasha olmadim. Ilova: Onamning kasalligi haqidagi vrach ma'lumotnomasi.

(sana)

(imzo)

F. I.O.

## **Σ -so'rov**

1. "Davlat tili haqida"gi Qonun qachon qabul qilingan?
2. "Davlat tili haqida"gi Qonun necha moddadan iborat?
3. Til va nutqning farqi nimada?
4. Adabiy til nima?
5. So'zning ma'nosi deganda nimani tushunasiz?
6. Imlo nima?
7. Tinish belgilari soni nechta?
8. Nutq uslublarini sanang.
9. Ish hujjatlari qaysi uslubda yaratiladi?
10. Tashkiliy hujjatlarga qaysi hujjatlar kiradi?
11. Xizmat yozishmalari namunalarini sanang.
12. Tarjimayi hol hujjatning xizmat mavqeyiga ko'rā qaysi turiga mansub?

## **Tafakkur tarozisi**

*(Hujjat nomini toping)*

SamISI qoshidagi 1- son akademik litsey o'quv ishlari  
bo'yicha direktor muovini Sh. Ro'zivevga fan o'qituvchisi  
R.Akilova tomonidan

2011-yilning 15-yanvar kuni siz rahbarlik a'ilayotgaan quruh II  
kurs talabalaridan Ahmedova Lola, Suyunova Dilnoza,  
Ubaydullayeva Shahnoza va Razzoqova Komilalar informatika  
fanidan o'tilgan darsaa uzsiz qatnashmaganligini ma'lum  
ailaman va sabablari anialangach, belgilangan tartibda chora  
ko'rishingizni so'rayman.

*O'qituvchi  
2011.16.01.*

*R.Akilova*

**«Paxtakor» shirkat xo'jaligining  
raisi \_\_\_\_\_ ga  
katta iqtisodchi \_\_\_\_\_ dan**

**(sana)**

Shirkat xo'jaligining shu yil \_\_\_\_\_ dagi qaroriga  
binoan Quvasoy shahriga xizmat safariga bordim. Bundan maqsad  
qurilish jihozlari kombinati bilan shirkatga 1999 yilning 3-choragida  
80 mingta yuqori navli qurilishbop g'isht yetkazib berish haqida shart-  
nomha tuzish edi.

Topshiriq bajarildi. Maxsus navli g'isht yilning 10 iyunidan  
kechikmay xo'jalikka keltirila boshlanadi.

Ilova: \_\_\_\_\_ da tuzilgan shartnomasi – 2 bet.

**Katta iqtisodchi** (imzo) \_\_\_\_\_  
F. I.O

A.Navoiy nomidagi jamoa  
xo'jaligi raisi \_\_\_\_\_ ga

(jamoa bo'yicha 1998-yil mobaynida a'zolar va  
boshqa shaxslardan tushgan shikoyatlar haqida)

1998-yilda jamoa xo'jaligi rahbariyati nomiga xo'jalik a'zolari  
va unda yashab ishlovchi boshqa shaxslardan 65 ta ariza va shikoyat  
tushdi, ulardan 47 tasi ariza va 18 tasi shikoyatdir.

Mazkur hujjatlarning barchasi qonunda belgilangan muddatlarda  
ko'rib chiqilgan.

Asos: xodimlarning ariza va shikoyatlarini qayd qilish daftari.

**Kotib(a)** (imzo) \_\_\_\_\_  
F. I.O

1999-yil 20-yanvar

# Mozaika

<b>Buyruq -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• boshqa tashkilotlardan keladigan hujjatlar</li></ul>
<b>Ma'lumotnama -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• biron-bir muassasaga yoki mansabdon shaxs nomiga biron iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunda yoziladigan rasmiy hujjat.</li></ul>
<b>Bayonнома -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• biron-bir muassasa rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdon shaxsga biron-bir voqeа-hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim ettiladigan rasmiy hujjat.</li></ul>
<b>Hisobot -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• bo'lgan voqeа-hodisalarни bildirish, axborot berish mazmunini ifodalaydigan hujjat</li></ul>
<b>Tarjimayi hol -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• ma'lum bir shaxsning mehnat faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi hujjat.</li></ul>
<b>Bildirishнома -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• turli yig'ilish, kengash va boshqa turdagи anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sliqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.</li><li>• muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlар, tadbirlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.</li></ul>
<b>Ariza -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• kishilarning shaxsiy hayoti va faoliyati bilan aloqador bo'lgan ma'lumot tusidagi hujjat.</li></ul>
<b>Tavsifнома -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• muassasaning mansabdon shaxslari tomonidan bajarilishi belgilab berilgan hujjat.</li></ul>
<b>Olinma hujjatlar -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• xizmat vazifasini amalga oshrishda ish beruvchi va xodimlar o'rtaсидаги шартлар мажмуси.</li></ul>
<b>Mehnat shartnomasi -</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• xizmat vazifasini amalga oshrishda ish beruvchi va xodimlar o'rtaсидаги шартлар мажмуси.</li></ul>

<b>Olinma hujjatlar -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>boshqa tashkilotlardan keladigan hujjatlar</b></li> </ul>
<b>Ariza -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• biron-bir muassasaga yoki mansabdar shaxs nomiga biron iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yozildigan rasmiy hujjat.</li> </ul>
<b>Bildirishnoma -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• biron-bir muassasa rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdar shaxsga biron-bir voqe-a-hodisa haqidagi xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdirm etiladigan rasmiy hujjat.</li> </ul>
<b>Ma'lumotnoma -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bo'lgan voqe-a-hodisalarini bildirish, axborot berish mazmunini ifodalaydigan hujjat</li> </ul>
<b>Tavsifnoma -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'lum bir shaxsning mehnat faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi hujjat.</li> </ul>
<b>Bayonnomा -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• turli yig'ilish, kengash va boshqa turdag'i anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat.</li> </ul>
<b>Hisobot -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlari, tadbirlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.</li> </ul>
<b>Tarjimayi hol -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• kishilarning shaxsiy hayoti va faoliyati bilan aloqador bo'lgan ma'lumot tusidagi hujjat.</li> </ul>
<b>Buyruq -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• muassasaning mansabdar shaxslari tomonidan bajarilishi belgilab berilgan hujjat.</li> </ul>
<b>Mehnat shartnomasi -</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• xizmat vazifasini amalga oshrishda ish beruvchi va xodimlar o'rtaсидаги shartlar majmuasi.</li> </ul>



#### 14-MAVZU. HUJJAT TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.

1. Hujjatchilik tarixi haqida.
2. Ish yiritish hujjatlariga qo'yiladigan talablar.
3. Ish yuritish hujjatlarining qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra turlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** hujjat, tasniflash, hujjat rekvizitlari, rasmiylik, hujjatchilik, hujjatlashtirish, zaruriy qismlari, lisoniy talablar, qoliplashgan birikmalar.

Ish yuritishning asosini bevosita hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo'lgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Zero, hujjatlar kechagina paydo bo'lgan narsa emas, kishilik jamiyat shakllanishi bilanoq bu jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlardagi muayyan muhim holatlarni muntazam va qat'iy qayd etib borishga ehtiyoj sezganlar. Ana shu ehtiyojga javob sifatida, tabiiyki, ilk, ibtidoiy hujjatlar yuzaga kelgan.

Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094-yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan tartibot vositalarining nechog'li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlaming almashinishi, aniqrog'i, kishilar o'rtaсидаги ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillashishi barobarida hujjatlar ham takomil topib brogan.

Sharqda X-XIX asrlarda *yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznomalar, vasiqa, tilxat* yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. XIX asrda Qo‘qon xonligida keng tarqalgan hujjatlardan biri «*patta*»lardir.

Oktabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o‘zining istibdod yo‘rig‘iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham bu yo‘riq sirtmog‘idan chetda qolmadi. Mohiyatan o‘ta g‘irrom til siyosati tufayli milliy jumhuriyatlardagi tillarning ijtimoiy mavqeysi pasayib bordi. Turkiston o‘lkasining 1918-yildagi Asosiy qonunida o‘zbek va rus tillari davlat tili deb e’lon qilingan. Holbuki o‘sha davrdagi o‘lka nufusining 37 foizini o‘zbeklar, 35 foizini qirg‘izlar (qozoqlar bilan birga), 17 foizini tojiklar va atigi 7 foizinigina ruslar tashkil etar edi. Bu hol hisobga olinsa, davlat tilini belgilashdagi mantiqning sog‘lom emasligini aniq ko‘rish mumkin. Tabiiyki, rasman o‘zbek va rus tillari davlat tili deb e’lon qilingan bo‘lsa-da, amalda idoraviy ish yuritish rus tilida olib borilavergan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi.

Muassasa, tashkilot, korxona va birlashmalardagi ishni ishlab chiqarish taraqqiyotiga muvofiq tashkil etishda, umuman, boshqaruv sohasida hujjatlarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayni paytda, hujjatlar matnini tuzish boshqaruv apparati faoliyatidagi eng sermehnat va sermashaqqat jarayondir. Bu jarayonning oqilonaligi va samaradorligini oshirmsandan turib, umumiy boshqaruv madaniyatini yuksaltirib bo‘lmaydi. Jamiyat hayoti barcha jabhalarining jadal rivoji esa boshqaruv madaniyatining darajasiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar har qanday zaruriy axborotni rasmiy – ish tilining tegishli shakllarida bemalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish malakalarini puxta egallagan bo‘lishi zarur.

O‘zbek hujjatchiligin shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda, eng avvalo, o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatları va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati ish qog‘ozlarini tuzish bilan bog‘liq kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi.

Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o‘z ish vaqtlarining 80 foizgacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. Mazkur xodimlar o‘zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lmasa, ish vaqtlarining 100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham ijobiy natijaga erishish qiyin.

Ish hujjatlarida har doim rasmiylik ma’nosi ustun turadi. Tildagi rasmiy uslub uchun xos bo‘lgan so‘zlar va qoliplashgan barqaror iboralar qat’iy odat tusiga kirib qolgan shakllar (qurilmalar) hujjatlar tiliga xos leksik-grammatik xususiyatlar hisoblanadi. Masalan, “*muhokama qilindi*”, “*zimmasiga yuklansin*”, “*qaroriga muvofiq ravishda*”, “*ma’lumot uchun qabul qilinsin*”, “*ruxsat berishingizni so’rayman*”, “*ishonch bildiraman*” kabi. Bunday qoliplashgan birikmalar matnga rasmiylik belgisini kiitadi. Qoliplashgan birikmalarni o‘rganish va yodda saqlash hujjatlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi.

Sirtdan qaraganda, hujjat tayyorlash juda oson ko'rindi, lekin har bir hujjatning o'ziga xos xususiyati – zaruriy qismlari, lisoniy talablari bor.

Hujjat tilida biror-bir shaxsga murojaat etganda, "Siz" olmoshi bosh harf bilan yoziladi. Ot turkumiga oid so'zlar ko'p ishlataladi. Son, odatda, raqam (I, II, X, 1, 2, 10) bilan yoziladi. Pul bilan bog'liq o'rnlarda raqamdan so'ng qavs ichida shu raqamning ifodasi so'zlar bilan qayd etiladi. Hujjatga oid gaplarda inversiya (gap bo'laklarining o'zgargan tartibi)ga yo'l qo'yilmaydi. Hujjatlar matni I shaxs yoki III shaxs nomidan yoziladi. Qonun moddalari esa shaxssizlik xususiyatiga egadir, chunki qonunla davlat amri bo'lib, davlat nomidan chiqariladi.

Hujjatchilikda imlo qoidalariga alohida, tinish belgilaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Har bir hujjatning nomi matn tarkibida atoqli ot sifatida bosh harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo'yilmaydi. Qolgan o'rnlarda hujjat nomlari kichik harf bilan yoziladi.

Hujjat tayyorlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish talab etiladi:

1) har bir hujjatni tuzishda uning zaruriy qismlariga qat'iy rioya qilinishi lozim, ya'ni zaruriy qismlarning o'ren almashinuviga yo'l qo'yilmaydi; 2) har kim o'z bilganicha hujjat to'lg'izishiga ruxsat berilmaydi; 3) hujjatlardan ariza, tarjimayi hol, tushuntirish xati, shaxsiy ishonchnoma, ba'zan hisobot, bildirishnomalari, bildirgi ham hujjat to'ldiuvchining o'z dastxatida yoziladi; qolgan hujjatlar esa turli yozuv uskunalarini vositasida yozilishi mumkin; 4) hujjatlar matnida tuzatish va o'chirishga yo'l qo'yilmaydi, bunday hujjatlar haqiqiyligini yo'qotadi, ya'ni qalbaki hisoblanadi. Alohida ahamiyatga ega hujjatlar to'ldirilganda hujjat to'ldiuvchining imzosi muassasa, xo'jalik yoki notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi shart.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlari (guvohnoma, yo'riqnomalari, nizom, sharhnomalari va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnomalari, dalolatnomalari, ishonchnomalari, tafsifnomalari, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. Xizmat yozishmalari (taklifnomalari, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarda quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz) // bildiraman(miz) // eslataman(miz)»;

2) «...ga rozilik bildiradi», «kafolat beradi», «qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «... tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.



## Mavzuga oid savollar

- 1.Hujjatchilikning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni haqida ma'lumot bering.
- 2.Ish hujjatlarining dastlabki namunalari qaysi davrlarga tegishli?
- 3.Ish hujjatlari oldiga qanday talablar qo'yiladi?

- Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- Elektron hujjatlar haqida ma'lumot bering.



### Mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlar

**№1.** Quyida berilgan birikmalardan rasmiy uslubga xoslangan birikmalarni ajrating.

Aytib o'tmoq, ta'kidlab o'tmoq, qayd etmoq, qayt etmoq, bo'shatib yubormoq, vazifasidan ozod etmoq, masalasini hal qilmoq, chora ko'rmoq, jazo qo'llamoq, vaziyatni yumshatmoq, ayovsiz tanqid qilmoq, ehtiyyot chorasi qo'llamoq, hisobot uchun qabul qilmoq.

**№2.** Namuna bo'yicha amaliyotning natijalari to'g'risida hisobot yozing.

(Professor, dotsent) rahbarligida, 2022-yilning ... dan ... gacha amaliyotda bo'ldim. Bundan tashqari alohida topshiriqlarni bajardim, ... o'rganib oldim, tajriba orttirdim.

**№3.** Qavs ichidagi savollar yordamida kerakli so'z va so'z birikmalarini zarur kelishik qo'shimchalari bilan qo'llang. Gaplarni daftaringizga yozing.

1. Talabalar (qayerdan?) qaytishdi. 2. Parazitologiya kafedrasi mudiri G.Rahimov (qayerdan?) qaytdi. 3. Talabalar (qayerga?) jo'natildi. 4. Veterinar (qayerga?) jo'natildi. 5. Talabalar ishlab chiqarish amaliyotini (qayerda?) o'tashdi. 6. Biotexnologiya fakulteti talabalari (qayerda?). 7. Veterinariya diagnostikasi fakulteti binosida (nima?) o'tkazildi.

**№4.** Mos javoblar asosida jadvalni to'ldiring.

Hujjat turlari	Hujjatlar
Tashkiliy hujjatlari	
Farmoyish hujjatlari	buyruq, ko'rsatma, farmoyish ariza, bayonnomma, dalolatnomma, ishonchnoma, tavsifnomma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon
Ma'lumot-axborot hujjatlari	taklifnomma, telegraph, xatlar
Xizmat yozishmalari	guvohnoma, yo'riqnomma, nizom, shartnomma

**№5.** Quyidagilardan ma'lumot-axborot hujjatlar nomlarini ajratib yozing.

Guvohnoma, yo'riqnomma, buyruq, farmoyish, ariza, bayonnomma, dalolatnomma, ishonchnoma, tavsifnomma, tarjimayi hol, tilxat, ko'rsatma, nota, e'lon, taklifnomma, telegraph, xatlar, tushuntirish xati, nizom, shartnomma, bayonet, ma'lumotnomma, bildirishnomma, kafolat xati.

**№6.** Quyida berilgan ma'lumot bilan tanishing. Hujjatning mazkur jihatga ko'ra turida e'tibor qaratiladigan xususiyatlarni ko'rsating.

Hujjatlar mazmun bayonining shakliga ko'ra uch turli bo'ladi:

1. Xususiy hujjatlar:

➤ fuqarolardan kelib tushgan ariza va shikoyatlar, ular asosida olib boriladigan xizmat yozishmalari misol bo'ladi. Ular aksariyat hollarda ayni bir vaziyat va holatni izohlab, tushuntirib berish maqsadida yoziladi.

2. Namunaviy hujjatlar:

➤ har bir tashkilot va uning bo'linmalari uchun zaruriy bo'lgan bildirgi, xizmat ma'lumotnomasi, tavsifnama, majlis bayoni kabi belgilangan tartibda tuziladigan hujjatlar kiradi.

3. Qolipli hujjatlar:

➤ ko'plab turlari mavjud, ular soha faoliyatini osonlashtiradi, vaqt va moddiy resurslarni tejashga imkon beradi, ish jarayonida qulaylikni oshiradi.

**№7.** Quyida berilgan hujjat namunasidagi xatoliklarni toping va to'g'irlab ko'chiring.

Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasasi va chorvachilik biotexnologiyalar Universiteti Veterinariya diagnostikasi fakulteti 101-guruh talabasi Eshbo'riyev Hakimjondan fakultet dekani Prof. B.Davlatovga

**TUSHUNTIISH XATI**

Meni 2022-yilning 10-14-mart kunlari oilaviy muammolarim sababli darslardan ozod qilishingizni so'rayman. Qoldirilgan darslarni qayta topshirish orqali o'zlashtirib olishga va'da beraman.

2022.03. 4 (imzo) ism, sharif

**№8.** Hujjat turi nomini toping va nuqtalar o'rnini mos qo'shimchalar bilan to'ldiring.

"O'zbek , rus tillari va adabiyoti" kafedras  
o'zbek tili fani o'qituvchisi Y.Shaymanova...  
Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash  
texnologiyasi yo'nalishi 104-guruh talabasi  
Alisher Doniyorov...

.....

Men 2022-yil 8-noyabr kuni 3-juftlik darsi... .... hech bir sababsiz ishtirok et...dim. Bunday holat boshqa qaytarilmaydi. Mabodo qaytaril..., tegishli chora ko'rishingiz... qarshi emasman.

12.04.2022

imzo. A.Doniyorov

**№9.** Quyidagi hukmlar orasidan to'g'ri deb hisoblaganlaringizni belgilang va asoslab bering.

Ish hujjatlari umumiylar bitta qolip asosida yuritiladi.

- Uslubiga ko'ra ish hujjatlari 3 turga bo'linadi.
- Tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo'riqnomma, nizom, shartnama kabi hujjatlar kiradi.
  - Tashkiliy hujjatlar aynan bir shaxs tomonidan yoziladi.
  - Ariza, bayonnomma, dalolatnomma, ishonchnoma kabilar ma'lumot-axborot hujjatlariga kiradi.
  - Taklifnomma, telegramma kabilar javob talab qilmaydigan ish hujatlari hisoblanadi.
  - Qoralama har qanday hujjatning asli, bиринчи rasmiy nusxadir.
  - Ikkinci nusxa (dublikati) asl nusxa bilan bir xil huquqiy kuchga ega emas.
  - Nusxa va ko'chirmalar, notarius, kadrlar bo'limi va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo'ladi.
  - Farmoyish hujjatlari mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarining huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruva jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.


**№10.** Ariza yozishda foydalilanligan quyidagi qoliplashgan birikmalarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.


... qabul qilishingizni so'rayman, ... ta'mirlashingizni so'rayman, ... ozod etishingizni so'rayman, ... ruxsat berishingizni so'rayman, ... veterinariya fakultetiga o'tkazishingizni so'rayman.



### Mustaqil ishslash uchun topshiriq

Quyida berilgan slaytlarda ko'rsatilgan hujjat turlari haqida ma'lumot tayyorlang.





## UYGA VAZIFA UCHUN TOPSHIRIQLAR

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunida ish yuritish hujjatlarining davlat tilida rasmiylashtirilishi haqida berilgan moddalar mazmuni bilan tarnishing.



### Mavzuga oid testlarni yeching

1. Hujjatlar tuzilishiga ko`ra nechta turga bo`linadi?  
A) ichki va tashqi hujjatlar      B) sodda va murakkab  
C) namunaviy va qolipli      D) rasmiy va shaxsiy
2. Davlat tomonida chiqariladigan qonun va farmoyishlar nechanchi shaxs nomidan yoziladi?  
A) I shaxs      B) II shaxs      C) III shaxs  
D) Bunday hujjat turlari shaxssizlik xususiyatiga ega bo`ladi.
3. Tashkiliy hujjatlarga qaysilar kiradi?  
A) buyruq, buyruqdan ko`chirma, farmoyish, ko`rsatma  
B) ariza, bayonnomma, bildirishnomma, dalolatnomma  
C) guvohnoma, yo`riqnomma, nizom, shartnomma  
D) adres, taklifnomma, xatlar, telegramma
4. Qaysi uslub uchun frazeologik birikma ishlatalishi xos emas?  
A) ilmiy va rasmiy      B) badiiy va rasmiy  
C) ilmiy va badiiy      D) so`zlashuv va ilmiy
5. Hujjatlar matni qanday talablar asosida ko`riladi?  
A) xoslik, aniqlik      B) ixchamlik, lo`ndalik  
C) mazmuniy to`liqlik      D) barcha javoblar to`g`ri
6. Qonun matnllari, farmonlar, buyruqlar, ariza, hujjatlar qaysi uslubda yoziladi?

A) badiiy uslub   B) so`zlashuv uslubi   C) ilmiy uslub   D) rasmiy uslub

7. Ma'muriy boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko`ra hujjatlar qanday guruhlarga bo`linadi?

A) tashkiliy, farmoyish hujjatlari

B) ma`lumot-axborot hujjatlari

C) xizmat yozishmalari

D) barcha javoblar to`g`ri

8. Farmoyish hujjatlari guruhiqa qanday hujjatlar kiradi?

A) guvohnoma, yo`riqnomma, dalolatnoma

B) buyruq, ko`rsatma, farmoyish

C) farmoyish, ariza, bayonnomma

D) hisobot, buyruq, dalolatnoma

9. Ma`lumot-axborot hujjatlar guruhiqa qaysi hujjatlar kiradi?

A) ariza, bayonnomma, bildirishnomma, dalolatnoma

B) e`lon, hisobot, buyruq, ariza

C) guvohnoma, hisobot, tilxat, buyruq

D) ma`lumotnomma, shartnomma, e`lon, vasiyatnomma

10. Hujjat matni qaysi shaxs tilidan yoziladi?

A) 1, 2      B) 2, 3      C) 1, 3      D) 2, 1

### *O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari*

Maksimal ball	Nazorat qilinadigan va baholanadigan ish turlari	Baholashda e'tibor qaratiladigan jihatlar
5	Mavzu bo'yicha nazariy tayyorgarlik darajasi va darsdagi faollik	Asosiy tushunchalar, ta'riflar, mohiyatini tushunish, ijodiy fikrlay olish, bilimlarni amalda qo'llay olish
5	Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, masalalarni hal qilishga ijodiy yondashish, tushuntirib bera olish
5	Nazorat ishlarini bajarish sifati	Topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, yechimni asoslay olish
5	Mustaqil topshiriqlarni bajarilish sifati	Berilgan topshiriqlarni to'g'ri va to'liq bajarish, mustaqil mulohaza yurita olish, bilimlarni amalda qo'llay olish, masalaga ijodiy yondashish, mohiyatini tushunish va aytib bera olish



